



MADANIYAT VA SAN‘AT SOHALARINI RIVOJLANTIRISH

Rustamov Mexrojiddin Kamoliddin o‘g‘li

Qo‘ziboyeva Ozoda Qaxramon qizi

rustamovmehrojiddin1@gmail.com

Ilmiy raxbar: Qo‘ziboyev Vohit Alijon o‘g‘li

Annotatsiya; *Ushbu maqolada madaniyat va san‘at sohalarini rivojlantirishning jamiyat taraqqiyotidagi o‘rni va ahamiyati yoritilgan. Madaniyat va san‘at insonning ma‘naviy dunyosini boyitish, milliy qadriyatlarni asrab-avaylash va yosh avlodni barkamol shaxs etib tarbiyalashda muhim omil hisoblanadi. Tadqiqotda madaniy merosni saqlash, san‘at turlarini qo‘llab-quvvatlash, ijodkorlar faoliyatini rag‘batlantirish hamda zamonaviy texnologiyalar asosida madaniyat va san‘atni rivojlantirish masalalari tahlil qilingan. Shuningdek, davlat siyosati doirasida amalga oshirilayotgan islohotlar, madaniyat va san‘at muassasalarining faoliyatini takomillashtirish, xalqaro hamkorlikni kengaytirish va madaniy xizmatlar sifatini oshirishga qaratilgan chora-tadbirlar yoritib berilgan. Maqola madaniyat va san‘at sohalarini rivojlantirish orqali jamiyatning ma‘naviy-ma‘rifiy darajasini yuksaltirish mumkinligini asoslab beradi.*

Kalit so‘zlar: *Madaniyat, san‘at, ma‘naviyat, milliy qadriyatlar, madaniy meros, ijodkorlik, san‘at turlari, madaniyat siyosati, madaniy muassasalar, teatr va musiqa san‘ati, tasviriy san‘at, xalq amaliy san‘ati, yoshlar tarbiyasi.*

Kirish

Madaniyat va san‘at jamiyat hayotining ajralmas qismi bo‘lib, u nafaqat estetik zavq bag‘ishlaydi, balki shaxsning har tomonlama kamol topishiga, ijtimoiy faollikning ortishiga ham xizmat qiladi. Teatr, musiqa, tasviriy san‘at, adabiyot, kino va xalq amaliy san‘ati kabi yo‘nalishlar orqali inson tafakkuri boyiydi, ijodiy fikrlash rivojlanadi va jamiyatda so‘g‘lom ma‘naviy muhit shakllanadi. Shu bois, madaniyat va san‘at sohalarini rivojlantirish har bir davlatning ustuvor vazifalaridan biri hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasida ham mustaqillik yillarida madaniyat va san‘at sohalariga alohida e‘tibor qaratilib, ushbu yo‘nalishda keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Milliy madaniy merosni asrab-avaylash, tarixiy obidalarni tiklash, ijodkorlarni qo‘llab-quvvatlash, madaniyat muassasalarining moddiy-texnik bazasini mustahkamlash hamda yoshlarni san‘atga keng jalb etish davlat siyosatining muhim yo‘nalishlaridan biri sifatida belgilanmoqda. Ayniqsa, zamonaviy madaniyat markazlari, san‘at maktablari, teatr va muzeylarning faoliyatini rivojlantirishga qaratilgan chora-tadbirlar muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Shu bilan birga, zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining joriy etilishi madaniyat va san‘at sohalarida yangi imkoniyatlarni yuzaga keltirmoqda. Raqamli





TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G‘OYALAR



madaniyat, onlayn ko‘rgazmalar, virtual muzeylar va masofaviy ijodiy loyihalar madaniy xizmatlar ko‘lamini kengaytirib, aholining barcha qatlamlari uchun madaniyat va san‘at mahsulotlaridan foydalanish imkonini oshirmoqda. Bu esa madaniyat va san‘atni ommalashtirish, milliy san‘atimizni xalqaro miqyosda targ‘ib etishda muhim omil bo‘lib xizmat qilmoqda.

Mazkur mavzuning dolzarbligi shundaki, madaniyat va san‘at sohalarini izchil rivojlantirish orqali jamiyatning ma‘naviy-ma‘rifiy darajasini yuksaltirish, yosh avlodni milliy va umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalash hamda barqaror ijtimoiy tarqqa yotga erishish mumkin. Shu sababli ushbu ishda madaniyat va san‘at sohalarini rivojlantirishning nazariy asoslari, amaliy ahamiyati hamda istiqboldagi vazifalari keng yoritilishi ko‘zda tutiladi.

“Bir haqiqatni hech qachon esdan chiqarmasligimiz kerak, mamlakatimizda madaniyat va san‘at taraqqiy etmasa, jamiyat rivojlanmaydiZ”

Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev.

Asosiy qism

Har bir millatning o‘tmishi, buguni va kelajagidan so‘zlovchi vosita bu madaniyatidir. Xalqimiz o‘zining boy madaniyati va san‘ati bilan bugungi kunda dunyo hamjamiyatida o‘ziga xos o‘rin egallab kelmoqda. Ayniqsa, mana shu besh yil ichida e‘tiborga molik ko‘plab ishlar amalga oshirildi desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Xususan, 2017-yil 7-fevralda Muhtaram Prezidentimiz tomonidan ishlab chiqilgan “Harakatlar strategiyasi” yurt ravnaqida o‘ziga xos dasturuamal bo‘lib xizmat qildi va keng qamrovli ishlarni amalga oshirilishida muhim omil bo‘ldi. Chunonchi, strategiyaning 4-ustuvor yo‘nalishlaridan biri bo‘lgan “Ijtimoiy sohani rivojlantirish” borasida joylarda keng qamrovli ishlar amalga oshirildi. Aholi, ayniqsa, yoshlarning bandligini ta‘minlash, fuqarolarni ijtimoiy himoya qilish va salomatligini saqlash, fan, ta‘lim, madaniyat va sport sohasini takomillashtirish, yo‘l-transport, muhandislik- kommunikatsiya hamda ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish bilan bog‘liq chora- tadbirlar amalga oshirildi. Bugungi shiddat bilan rivojlanayotgan zamonamizda davlatimiz rahbari tomonidan ilgari surilgan “Yangi O‘zbekiston” tushunchasi ham xalqimiz tilida o‘ziga xos tarzda yangradi va yangicha dunyoqarash, fikrlash sari qadam tashlashga undamoqda. Zero, Prezidentimiz aytganlaridek, “Bugungi O‘zbekiston kechagi O‘zbekiston emas, bugungi xalimiz ham kechagi xalq emas”. Ta‘kidlash kerakki, Yangi O‘zbekistonni barpo etish - bu shunchaki xohishistak, subyektiv hodisa emas, balki tub tarixiy asoslarga ega bo‘lgan, mamalakatimizdagi mavjud siyosiy- huquqiy, ijtimoiy-iqtisodiy, ma‘naviy-ma‘rifiy vaziyatning o‘zi taqozo etayotgan, xalqimizning azaliy intilishlariga mos, uning milliy manfaatlariga to‘la javob beradigan obyektiv zaruriyatdir. Yangi O‘zbekiston - demokratiya inson huquq va erkinliklari borasida umume‘tirof etilgan norma va prinsiplarga qat‘iy amal qilgan holda, jahon hamjamiyati bilan do‘sona hamkorlik tamoyillari asosida rivojlanadigan, pirovard maqsadi xalqimiz uchun erkin, obod va farovon hayot yaratib berishdan iborat bo‘lgan davlatdir. Qaysi davlatda xalqning farovonligi, huquq va erkinligi munosib tarzda qadrlansa, xalqning





TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G‘OYALAR



roziligiga erishilsa u davlatning ertasi buyuk hamda e’tiborda bo’ladi. Xalq roziligiga erishish, yurt farovonligini ta’minlash, dunyo hamjamiyatida munosib o’rin egallash maqsadida bugungi kunda yurtimizda keng ko’lamli qator ishlar amalga oshirilmoqda. Ko’plab sohalarga e’tibor qaratilmoqda. Inson tirik ekan kuy, qo’shiqqa, ko’ngilga kayfiyat baxsh etuvchi san’at durdonalariga ehtiyoj sezadi. Madaniyat va san’at- jamiyatning bebaho xazinasi, inson tafakkurining bemisil kashfiyotidir. Yangilanayotgan O‘zbekistonda e’tibor qaratilayotgan muhim sohalardan biri ham aynan madaniyat va san’at sohasidir. Madaniyat va san’at mamlakatning, millatning yuzi, ko’rki hisoblanadi. Har bir xalq o’z milliy madaniyati, urf-odati o’z shakl shamoiliga egaligi bilan alohida ajralib turadi. O‘zbek xalqining faqat o’zigagina xos boy madaniy merosi borki, u o’z jozibasi bilan kurrai zamin ahlini o’ziga rom etib kelmoqda. Bu jahoniy e’tirof davlatimiz rahbari tomonidan soha taraqqiyotiga qaratilayotgan katta e’tibor, g’amxo’rlikning mevasi desak yanglishmagan bo’lamiz. Jumladan, sohani yanada rivojlantirish va takomillashtirish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 26-avgustda “O‘zbekiston Respublikasi madaniyat va san’at sohasini innovatsion rivojlantirish to’g’risida”gi PQ- 3920-sonli qarori, 2018-yil 28-noyabrda “O‘zbekiston Respublikasida milliy madaniyatni yanada rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to’g’risida”gi PQ-

4038sonli qarori, 2020-yil 26-mayda “Madaniyat va san’at sohasining jamiyat hayotidagi o’rni va ta’sirini yanada oshirish chora-tadbirlari to’g’risida”gi PF-6000- sonli farmonlari qabul qilindi. Shu bilan birgalikda 2021-yil 9-dekabrda “Madaniyat va san’atni rivojlantirishni qo’llab-quvvatlash tizimini yanada takomillashtirish to’g’risida”gi PQ-36-sonli [4: www.lex.uz] hamda 2022-yil 2-fevralda “Madaniyat va san’at sohasini yanada rivojlantirishga doir qo’shimcha chora-tadbirlar to’g’risida”gi PQ-112-sonli [5:1] qarorlarida ham sohaga oid dolzarb masalalar belgilangan bo’lib, ularni amalga oshirishda soha mutasaddilariga juda katta vazifalar yuklatilgan. Madaniyat va san’at sohasida juda ko’p yillar davomida mehnat qilgan fidoyi insonlardan biri bo’lgan siyosiy fanlar nomzodi, professor Azamat Haydarov “Har bir vazifada juda katta ezgulik va ulug’ maqsadlar Mujassam” ligini alohida ta’kidlagan. Qonunchilik palatasi tomonidan qabul qilingan, 2021-yil 6-yanvarda Senat tomonidan ma’qullangan “Madaniy faoliyat va madaniyat tashkilotlari to’g’risida”gi

O‘zbekiston Respublikasi qonuni madaniy faoliyatni, madaniyat tashkilotlari faoliyati sohasidagi munosabatlarni tartibga solish, ijodkorni, ijodiy jamoani, ijodiy faoliyatni qo’llab-quvvatlash borasida ham nihoyatda ahamiyatlidir. Yurtimizda madaniyommaviy tadbirlar konsert-tomosha faoliyati xalq ijodiyoti, xalq o’yinlari, madaniyat markazlari faoliyati, milliy madaniy markazlar, madaniy faoliyat sohasida hamkorlik aloqalarini mustahkamlash madaniyat obyektlarini va san’at asarlarini ommalashtirish, olis hududlarda madaniyatni rivojlantirish, madaniyat xodimlarini ijtimoiy himoya qilish borasidagi dasturilamal hisoblanadi. Sohaga hamda soha vakillariga qaratilayotgan yuksak e’tibor namunasi sifatida



TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G‘OYALAR



15-aprel sanasini aynan “Madaniyat xodimlari kuni” etib belgilanishida ham ko‘rishimiz mumkin. Ushbu quvonchli kun arafasida Madaniyat vazirligi tashabbusi bilan Toshkent viloyatining Ohangaron tumani ma’rifiy markazi - Nurobod qo‘rg‘onida “San’atkorlar bog‘i” tashkil etilishi to‘yga to‘yonadek bo‘ldi, desak, mubolag‘a emas. Avval hech kuzatilmagan bu voqelik soha xodimlarini benihoya mamnun etti.

Keyingi yillarda mamlakatimizda xalqimizning ma’naviy-ma’rifiy saviyasini yuksaltirish, madaniyat va san’at muassasalarining moddiy-texnik bazasini mustahkamlash, soha vakillarini qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

O‘zbekiston ijodkorlarini qo‘llab-quvvatlash “Ilhom” jamoat fondi, O‘zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi huzurida Madaniyat va san’atni rivojlantirish jamg‘armasi, O‘zbekiston kompozitorlari va bastakorlari uyushmasi, O‘zbekiston davlat filarmoniyasi, O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat institutining Farg‘ona mintaqaviy filiali tashkil etildi.

O‘zbek mumtoz va folklor san’atining noyob namunalarini, o‘ziga xos ijro maktablari va an’analarini asrab-avaylash va rivojlantirish tizimi yaratildi. O‘zbek milliy maqom san’ati markazi va muzeyi tashkil etildi. Har ikki yilda bir marta Xalqaro maqom san’ati anjumani hamda Xalqaro baxshichilik san’ati festivalining o‘tkazilishi noyob merosimizning nufuzini jahon miqyosida oshirish yo‘lida muhim amaliy qadam bo‘ldi.

Xulosa

“Biz O‘zbekistonning yangi qiyofasini yaratishga kirishgan ekanmiz, buni, avvalo milliy madaniyatimizni rivojlantirishdan boshlashimiz lozim. Shu ma’noda, madaniyat – bu xalqimiz, jamiyatimiz qiyofasidir. Xulosa shuki, xalqimizning rivojlanish darajasi, avvalo, milliy madaniyatimizga qarab baholanadi”, – deb uqtiradi davlatimiz rahbari. Prezidentimizning ushbu da’vati barchamizga ulkan mas’uliyat yuklaydi.

Madaniyat va san’at sohalarini rivojlantirish jamiyatning ma’naviy-ma’rifiy taraqqiyotini ta’minlovchi eng muhim omillardan biri hisoblanadi. Ushbu sohalar orqali xalqning tarixiy xotirasi, milliy o‘zligi, an’ana va qadriyatlari saqlanib qoladi hamda avloddan avlodga yetkaziladi. Madaniyat va san’at inson tafakkurini boyitib, estetik didni shakllantiradi, shaxsning ijodiy salohiyatini yuzaga chiqaradi va jamiyatda ijtimoiy barqarorlikni mustahkamlashga xizmat qiladi.

Bugungi kunda madaniyat va san’at sohalariga bo‘lgan e’tiborning kuchayishi davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishiga aylangan. Madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish, teatr, musiqa, tasviriy va amaliy san’at turlarini rivojlantirish, ijodkorlarni qo‘llab-quvvatlash, madaniyat muassasalarining moddiy-texnik bazasini mustahkamlashga qaratilgan islohotlar jamiyat hayotida ijobiy o‘zgarishlarga sabab bo‘lmoqda. Bu esa madaniyat va san’atning jamiyat hayotidagi ta’sir doirasini yanada kengaytirib, aholining madaniy faolligini oshirmoqda.

Yosh avlodni madaniyat va san’atga keng jalb etish masalasi ham muhim ahamiyat kasb etadi. San’at orqali yoshlarning ma’naviy immuniteti kuchayadi, ularning bo‘sh vaqtini mazmunli tashkil etish, salbiy illatlardan himoya qilish imkoniyati oshadi. Ijodiy





TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'UYALAR



to'garaklar, san'at maktablari, tanlov va festivallar yoshlarning iste'dodini ro'yobga chiqarishda muhim maydon bo'lib xizmat qiladi. Natijada, jamiyatda barkamol, ma'naviy yetuk va faol fuqarolar shakllanadi.

Xulosa o'rnida aytish mumkinki, madaniyat va san'at sohalarini izchil va tizimli rivojlantirish orqali jamiyatning ma'naviy salohiyatini yuksaltirish, milliy madaniyatni asrash va boyitish hamda barqaror taraqqiyotga erishish mumkin. Shu bois, kelgusida ham mazkur sohalarga investitsiyalarni oshirish, innovatsion yondashuvlarni keng joriy etish va ijodkorlar faoliyatini har tomonlama qo'llab-quvvatlash dolzarb vazifa bo'lib qoladi.

Foydalanilgan adabiyotlar :

1. U. G'. Zunnunova, T. R. Fayziyev. Art marketing. O'quv qo'llanma. Toshkent. "Kamalak" 2019 y.
2. A. Haydarov. Harakatlar strategiyasi va ma'naviy yuksalish. "Donishmand ziyosi" nashriyoti. 2020 yil.
3. A. Haydarov. Ma'naviyat – huquqiy davlatning tayanchi. "G'ofur G'ulom" nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti. Toshkent – 1999 y.
4. Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. – Toshkent: O'zbekiston, 2017.
5. Abdullayev R. Milliy madaniyat va ma'naviy taraqqiyot. – Toshkent.
6. O'zbekiston Respublikasi Madaniyat vazirligi rasmiy hujjatlari va materiallari.
7. Mirziyoyev Sh. Yangi O'zbekiston demokratik o'zgarishlar, keng imkoniyatlar va amaliy ishlar mamlakatiga aylanmoqda. - Toshkent: 2021. O'qituvchi. - B. 184.
8. To'ychiyeva S. Madaniyat va san'atimiz rivojidadagi zarsahifalar // Yangi O'zbekiston gazetasi. - Toshkent: 2022. - B. 6.

